FAO tadqiqotlariga ko'ra, "qishloq xo'jaligini raqamlashtirish va avtomatlashtirish BRMning 1-maqsvadi — 'Kambag'allikni tugatish' va 2-maqsvadi — 'Ochlikni bartaraf etish', shuningdek ekologik barqarorlik va iqlim o'zgarishlari bo'yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bunga tashqi ta'sirlarga barqarorlikni ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish, oziq-ovqat mahsulotlari sifatini yaxshilash va xavfsizligini mustahkamlash evaziga erishish mumkin" [3].

AQSh Xalqaro hamkorlik bo'yicha agentligi (USAID) ekspertlari olib borgan tadqiqotlarga ko'ra, agrooziq-ovqat sektorida mobil texnologiyalar, ma'lumotlarni masofadan uzatish va qayta ishlash xizmatlarining kengayishi hozirning o'zida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarning axborotga, ishlab chiqarish resurslariga, bozorlar va moliyaviy xizmatlarga hamda ta'lim olish imkoniyatlariga kirish imkoniyatini oshirmoqda. Raqamli texnologiyalar kichik fermer xo'jaliklarining raqamli agrooziq-ovqat tizimlariga integratsiyalashuvi uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda [4].

E.Yusupov va D.Djalolovalarga ko'ra, raqamli texnologiyalarning agrooziq-ovqat sektori natijalari va oziq-ovqat ta'minoti zanjiri samaradorligiga ijobiy ta'sirini inkor etib bo'lmaydi [5].

Ammo, respublikamiz sharoitida agrar ishlab chiqarishda "Qishloq xo'jaligi-4.0" va "Aqlli qishloq xo'jaligi" kontsepsiyalarini joriy etish va ulardan samarali foydalanish masalalarining yetarli darajada o'rganilmaganligi ushbu tadqiqot mavzusining tanlanishiga sabab bo'ldi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Agrar sektorda "Qishloq xo'jaligi-4.0" va "Aqlli qishloq xo'jaligi" kontsepsiyalaridan samarali foydalanish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmini oshirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirish

1 <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

2 <https://lex.uz/docs/-4567334>

3 <https://lex.uz/ru/docs/-4800657>

4 <https://lex.uz/ru/docs/-5179198>



masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan xalqaro tashkilotlar ekspertlari, xorijiy va milliy olimlarning ilmiy ishlari mazkur tadqiqotning nazariy-uslubiy asoslarini tashkil etadi. Tadqiqotda abstrakt va analitik mushohada, normativ va pozitiv tahlil, qiyosiy va omilli tahlil, statistik usullardan foydalanilgan.

Maqolani tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq xo'jaligi respublikamiz iqtisodiyotining yirik tarmoqlaridan biri bo'lib, qishloq aholisi farovonligining asosiy tayanchi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi salmog'i 2020–2024-yillarda 24,1 foizdan 19,2 foizga tushgan. Shunga qaramay, agrar sektor respublikada oziq-ovqat ta'minotining hamda aholining katta qismi bandligini ta'minlashda asosiy manba sifatida qaraladi. Jumladan, 2020–2024-yillarda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida bandlar sonida qishloq xo'jaligi salmog'i 26,4 foizdan (2024-y.) 22,7 foizgacha (2020-y.) kamaygan, mamlakat jami eksportida meva-sabzavot mahsulotlari eksporti salmog'i esa 5,0 foizdan (2024-y.) 6,7 foizgacha (2020-y.) yetgan. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlarining yillik o'sish sur'atlari 2020–2024-yillarda o'rtacha 103,5 foizni tashkil etgan (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni dinamikasi (1-o'rmon va baliq xo'jaligini qo'shgan holda)⁵

Ko'rsatkichlar	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2024 y. 2020 y.ga nis., f.p.
Qishloq xo'jaligining mamlakat YalMdagi salmog'i, %da	24,1	23,6	22,3	21,2	19,2	– 4,9
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotining o'sish sur'atlari, (o'tgan yilga nisbatan foizda)	102,7	104,0	103,6	104,1	103,1	0,4 f.p.
Asosiy kapitalga kiritilgan jami investitsiyalarda qishloq xo'jaligi salmog'i, %da	7,0	7,4	5,9	4,8	5,1	– 1,9
Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida bandlar sonida qishloq xo'jaligi salmog'i, %da	26,4	25,2	25,1	23,9	22,7	– 3,7
Mamlakat jami eksportida meva-sabzavot mahsulotlari eksporti salmog'i, %da	6,7	5,7	5,9	4,8	5,0	– 1,7

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan. www.stat.uz

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o'zgarishlar samarasi o'laroq, yildan-yilga aholi jon boshiga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi oshib bormorda (2-jadval).

2-jadval. Respublikada aholi jon boshiga asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi

Mahsulot turlari	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.	2024 y. 2020 y.ga nis., %
Don	221,0	218,7	224,1	232,2	238,8	108,1
Kartoshka	91,0	94,1	96,6	98,2	100,0	109,9
Sabzavot	301,8	310,8	313,1	317,3	322,7	106,9
Poliz	61,8	65,5	67,9	70,1	72,2	116,8
Meva va rezavorlar	81,4	81,7	84,1	85,7	87,1	107,0
Uzum	46,5	48,6	49,4	47,6	49,3	106,0
Go'sht (tirik vaznda)	73,6	75,5	76,5	77,8	79,2	107,6
Sut	320,7	322,9	326,2	328,7	334,8	104,4
Tuxum, dona	227	223	228	233	238	104,8
Baliq	4,2	4,9	5,2	5,4	5,4	128,6

5 Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan. www.stat.uz



Tadqiqotlarga ko'ra, keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi tarmog'ida mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi barqaror o'sish tendensiyalarini namoyon etgan bo'lishiga qaramay, jahon taraqqiyotida yuz berayotgan global o'zgarishlar sharoitida (pandemiya, iqlim o'zgarishlari, siyosiy keskinliklar va ziddiyatlar, iqtisodiy inqirozlar) bu tarmoqning samaradorlik ko'rsatkichlari past bo'lib, barqaror oziq-ovqat ta'minoti hamda xavfsizligini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan:

- tarmoqda band aholining jami bandlarga nisbatan salmog'i rivojlangan mamlakatlarda 1,3–5 foizni tashkil etsa, respublikamizda bu ko'rsatkich salkam 22,7 foizni (2024-y.) tashkil etadi va bu holat faol mehnat resurslarining katta qismini agrar sektorda unumsiz mehnat bilan band bo'lishiga olib kelmoqda;

- sug'oriladigan yerlarning qariyb 40 foizidan ortig'i sho'rlangan va kuchli sho'rlangan yerlar hisoblanadi, buning oqibatida tuproqda foydali moddalar miqdori o'rtacha darajadan pasayib ketgan;

- qishloq xo'jaligini texnika va agregatlar bilan ta'minlash darajasi past, mavjud texnikalarning aksariyat qismi 15 yildan ortiq muddatdan beri foydalanilmoqda, paxta va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlari hosilining asosiy qismi qo'l mehnati yordamida yig'ib-terib olinadi;

- ekinlarning hosildor, kasalliklar va suvsizlikka chidamli, saqlash va tashish imkoniyatlari yuqori bo'lgan sifatli navlari hamda urug'liklar yetishmaydi; ularni rayonlashtirish va optimal joylashtirish, ilmiy asoslangan almashlab ekish tizimi yaxshi yo'lga qo'yilmagan;

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari agrokimyoviy tuproq tahlili, ekinlarni sputnik navigatsiya tizimlari orqali optimal joylashtirish, vegetatsiya davrida avtomatik oziqlantirish va kuzatib borish bo'yicha elektron platformalarga ega emas;

- qishloq xo'jaligi yerlarida zararkunanda va kasalliklarning rivojlanishini oldindan avtomatik tarzda aniqlash tizimi mavjud emas; qishloq xo'jaligi ekinlarining avlodli (reproduktiv) urug'lik materiallarining sifati pasayib ketgan;

- chorvachilikda aksariyat ish jarayonlari qo'l kuchi yordamida amalga oshiriladi, chorva mollarini oziqlantirish va ularning organizmini kuzatib borish hamda chorvachilikdagi boshqa jarayonlarni avtomatik rejimda amalga oshiradigan ilg'or texnologiyalar deyarli qo'llanilmaydi;

- bir sog'in sigirdan yiliga sog'ib olinadigan sut miqdori ko'rsatkichi Isroil, Daniya, Niderlandiya kabi mamlakatlarga nisbatan sezilarli darajada pastligicha qolmoqda;

- chorvachilikda nasl sifati pastligi, ozuqa ekinlarini yetishtirish maydonlarining yetishmasligi sababli fermer xo'jaliklarining chorva mollari ozuqasiga bo'lgan talabi yetarlicha qondirilmaydi [6].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston–2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli, 2019-yil 23-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-sonli farmonlari, 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-sonli qarori hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda mavjud yer, suv va boshqa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish borasida vazifalar belgilab berilgan.

Respublikamizda, ayniqsa agrar ishlab chiqarishni raqamlashtirish va tarmoqqa "Qishloq xo'jaligi–4.0" hamda "Aqlli qishloq xo'jaligi" konsepsiyalarini joriy etish masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmui va qishloq xo'jaligida raqamlashtirish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 794-sonli qarori bilan "Aqlli qishloq xo'jaligi texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi", "Aqlli qishloq xo'jaligi texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha 2021–2023-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturi", "2021–2022-yillarda agrar sohada zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni keng joriy qilish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi" hamda "2021-yilda 'Aqlli qishloq xo'jaligi' texnologiyalarini respublika hududlariga joriy qilish bo'yicha manzilli ro'yxat" tasdiqlangan. Mazkur qaror bilan tasdiqlangan "Aqlli qishloq xo'jaligi texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi"ning asosiy maqsadi — qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini va chorva mollari mahsuldorligini oshirishga e'tibor qaratgan holda, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishga yuqori texnologiyalarni joriy etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish hisoblanadi. Strategiya oldiga qo'yilgan maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan: qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishda raqamli axborot texnologiyalarini joriy etish; zamonaviy kompyuter texnologiyalarini tatbiq etish orqali suv resurslarini boshqarish va undan foydalanish; intensiv bog'larni tashkil etish va bog'dorchilik mahsulotlarini yetishtirishda avtomatlashtirilgan boshqaruv texnologiyalarini joriy etish; issiqxona xo'jaliklarida avtomatlashtirilgan, kompyuterlashgan intellektual texnologiyalarni joriy etish; qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish; zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan logistika va savdo markazlarini tashkil etish; qishloq xo'jaligining barcha yo'nalishlari uchun "Aqlli qishloq xo'jaligi" texnologiyalari bo'yicha malakali kadrlar tayyorlash va kadrlar malakasini oshirib borish; "Aqlli qishloq xo'jaligi" texnologiyalarini joriy etishning normativ-huquqiy bazasini shakllantirish.



Bugungi kunda qishloq xo'jaligiga raqamli texnologiyalarga asoslangan "Aqlli qishloq xo'jaligi"ni joriy etish orqali "Qishloq xo'jaligi-4.0" innovatsion rivojlanish fazasiga kirilmoqda va "Aqlli dehqonchilik", "Aqlli dala", "Aqlli bog'", "Aqlli issiqxona", "Aqlli ferma" kabi ilg'or va samarali xo'jalik yuritish usullari keng kirib kelmoqda. Masalan, "Aqlli dehqonchilik" avtomatlashtirilgan intellektual tizim bo'lib, ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish, tuproq va yer resurslari maydonlarining holati bo'yicha ma'lumotlarni yangilash, qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish, qishloq xo'jaligi yerlarini taqsimlash, almashlab ekishni qo'llash, ekinlarni yetishtirish agrotexnologiyalari, yer va suv resurslaridan foydalanish hamda adaptiv-landshaft dehqonchiligi tizimining faoliyati va samaradorligini nazorat qilish va monitoringini olib borishni o'z ichiga oladi (3-jadval).

3-jadval. "Qishloq xo'jaligi-4.0" konsepsiyasi asosida "Aqlli qishloq xo'jaligi" texnologiyalari tasnifi⁶

Texnologiyalar turlari	Texnologiyalar tasnifi
Aqlli dehqonchilik	avtomatlashtirilgan intellektual tizim bo'lib, ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish, tuproq va yer resurslari maydonlarining holati bo'yicha ma'lumotlarni yangilash, qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish, qishloq xo'jaligi yerlarini taqsimlash, almashlab ekishni qo'llash, ekinlarni yetishtirish agrotexnologiyalari, qishloq xo'jaligi yerlarini avtomatlashtirilgan tarzda baholash, yer va suv resurslaridan foydalanish va adaptiv-landshaft dehqonchiligi tizimining faoliyati va samaradorligini nazorat qilish va monitoringini olib borishni o'z ichiga oladi
Aqlli dala	raqamli texnologiyalarini joriy etish, tuproq, atrof-muhit va o'simliklar to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish va tizimli qo'llash orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining barqaror o'sishini ta'minlovchi tizim
Aqlli bog'	robotlashtirilgan hamda haydovchisiz mashina, agregatlarni qo'llagan holda bog'dorchilik mahsulotlarini yetishtirishning barcha texnologik jarayonlarini amalga oshiruvchi va nazorat qiluvchi intellektual tizim
Aqlli issiqxona	avtomatik rejimda o'simlikshunoslik mahsulotlarini yetishtirish uchun operator, agronom, muhandislarning ishtirokini maksimal darajada minimizatsiyalashgan avtonom, robotlashtirilgan va tashqi ta'sirlardan himoyalangan qishloq xo'jaligi ob'ekti
Aqlli ferma	inson ishtirokini (operator, chorvador, veterinar va boshqalar) talab qilmaydigan to'liq avtomatlashtirilgan rejimda qishloq xo'jaligi hayvonlarini parvarishlashga mo'ljallangan to'liq avtonom, robotlashtirilgan qishloq xo'jaligi ob'ekti

BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO UN) tadqiqotlariga ko'ra, barqaror rivojlanish maqsadlari yo'lida qishloq xo'jaligini raqamlashtirish yoki "Aqlli qishloq xo'jaligi"ni joriy etishning tayanch shart-sharoitlari mavjud bo'lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

– raqamli texnologiyalarni qo'llashga imkon yaratuvchi minimal sharoitlar: raqamli texnologiyalarning mavjudligi; ularga jismoniy va moliyaviy jihatdan ulanish imkoniyatlari; aholining kompyuter savodxonligi darajasi; axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida ta'lim berish darajasi; raqamli texnologiyalar sohasidagi siyosiy chora-tadbirlar (elektron hukumat va boshq.);

– raqamli texnologiyalarni qo'llab-quvvatlovchi (yo'ldosh) sharoitlar: Internet, mobil aloqa va ijtimoiy tarmoqlarning tarqalganligi va ulardan foydalanish imkoniyatlari; raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalari; tadbirkorlik va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlanishi (biznes-inkubatorlar, startaplar va boshqa innovatsion dasturlar) [3].

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish zanjirida raqamli texnologiyalarga asoslangan "Aqlli sanoat" va "Aqlli qishloq xo'jaligi"ni joriy etish orqali "Qishloq xo'jaligi-4.0" innovatsion rivojlanish fazasiga kirib borilmoqda (4-jadval).

⁶ Manba: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 17 dekabrda 794-son qarori bilan tasdiqlangan "Aqlli qishloq xo'jaligi" texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi" asosida tuzilgan.

4-jadval. Oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish zanjirini raqamlashtirish bo'yicha xorijiy tajribalar⁷

Mamlakatlar	Oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish zanjirini raqamlashtirish yo'nalishlari va natijalari
Niderlandiya	Raqamli texnologiyalar yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, samarali logistika tizimi va yuqori mehnat unumdorligi Niderlandiyani bu borada yetakchi pozitsiyaga olib chiqdi. Vageningin universiteti g'oyasi asosida "oziq-ovqat vodiysi"ni yaratilishi mamlakatni oziq-ovqat eksporti va raqamli texnologiyalar bo'yicha yetakchilardan biriga aylantirdi. 2020 yil natijalari bo'yicha Niderlandiya axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishi darajasini ifodalovchi tarmoq tayyorgarligi indeksida birinchi o'rinni egalladi
Germaniya	Germaniya oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi vazirligi huzurida fan va biznes vakillaridan tashkil topgan ekspert guruhlar va "raqamli maydon"ni shakllantirish orqali turli tajribalar olib borilmoqda. Asosiy e'tibor qishloq hududlarida raqamli infratuzilmalar va keng polosali internetni rivojlantirishga qaratilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishi darajasini ifodalovchi tarmoq tayyorgarligi indeksida Germaniya 12 o'rinni egallaydi
Isroil	Raqamli texnologiyalarning asosiy farqli xususiyati raqobatbardoshlik muammosini hal etishga fanlararo yondashuvning mavjudligidir. Innovatsion tadqiqotlar boshida Vulkani tadqiqot markazi turadi. Raqamlashtirish bo'yicha xalqaro reytinglarda yuqori pozitsiyalarni egallab keladi. Masalan global innovatsion indeksda Isroil 15 o'rinni egallagan
Polsha	Polshada agrosanoat majmuasini raqamlashtirish borasidagi davlat siyosatining o'ziga xosligi raqamli texnologiyalar vositasida byurokratik to'siqlarni bartaraf etish hamda davlat tomonidan ishlab chiqarishni tartibga solishni soddalashtirishga qaratilgan. Mamlakatda fermerlar uchun "yagona darcha" elektron platformasi mavjud bo'lib, u orqali fermerlarga kerakli yordam va servis xizmatlari ko'rsatish amalga oshiriladi. Elektron hukumatni rivojlantirish indeksida Polsha 24 o'rinni egallaydi

I.Abdullaeva va B.Ahmedovlarning fikricha, "aqlli qishloq xo'jaligi"dan foydalangan holda quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- "aqlli issiqxonalar" o'g'itlar, kimyoviy moddalar va suvdan samaraliroq foydalanish hamda ekinlarni parvarish qilish uchun zarur bo'lgan xodimlar sonini optimallashtirishga, shuningdek, inson omili ta'sirida yuz beradigan yo'qotishlarni kamaytirishga imkon beradi. Bu butun sug'orish jarayoni va mikroiklimni nazorat qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, barcha tizimlarning rentabelligi va sifatini nazorat qilish orqali mahsulot sifatini yaxshilash va ishlab chiqarish xarajatlarni kamaytirish bilan birga, unumdorlikni 20-40% ga oshirish imkonini beradi;

- dron va multikopterlardan ekin maydonlarini xaritalash uchun foydalanish mumkin. Ulardan, shuningdek, dalalarning elektron 3D xaritalarini yaratish, o'g'it solish me'yorlarini hisoblash, dalalarni tekshirish va ekinlar holatini kuzatish, o'simliklar haroratini o'lchash (ayniqsa, qurg'oqchilik davrida), transport va qishloq xo'jaligi texnikalarining ishlashini nazorat qilish, yer maydonlarini qo'riqlash, o'simliklarni himoya qilish va o'g'itlashning optimal vositalarlarini tanlashda foydalanish mumkin;

- aqlli fermalar chorvachilik mahsuldorligi va mahsulot sifatini oshirishi, shuningdek, xarajatlarni kamaytirishi mumkin. Oziqlantirish, sog'ish va hayvonlar salomatligini nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlaridan foydalanish sog'in sigirlar mahsuldorligini 30-40 foizga oshirishi va mavjud ozuqa zaxiralardan samarali foydalanish imkonini beradi [7].

Tractica kompaniyasi hisob-kitoblariga ko'ra, 2024 yilga borib agrosanoat majmuasiga 594 ming donagacha qishloq xo'jaligi robotlari yetkazib beriladi. Tahlilchilar raqamli texnologiyalarni qishloq xo'jaligida qo'llashning quyidagi muhim yo'nalishlariga e'tibor qaratishadi: uchuvchisiz traktorlar va samolyotlar; moddiy resurslarni boshqarish; vegetatsiya davrida ekinlarni parvarish qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari; chorvachilik fermalarini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari [8].

So'nggi yillarda "Aqlli qishloq xo'jaligi" konsepsiyasining joriy etilishi agrar barqarorlikni ta'minlashning eng dolzarb va samarali yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu konsepsiya asosida IoT (narsalar interneti), sun'iy intellekt, sensorlar, uchuvchisiz qurilmalar, avtomatlashtirilgan sug'orish tizimlari kabi zamonaviy texnologiyalar yotadi. Mazkur texnologiyalar resurslardan tejamkor foydalanish, hosildorlikni oshirish va ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bois, agrar ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirishda nazariy bilimlar va amaliy mexanizmlarning uyg'unligi, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasining kuchaytirilishi muhim hisoblanadi. Bu yo'nalishdagi izlanishlar va tajribalar nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo miqyosida agrar sohaning raqobatbardoshligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va ekologik izlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

⁷ Manba: Международный опыт развития цифровизации в АПК: государственная поддержка, регулирование, практика. Евразийская экономическая комиссия. Москва, 2018. <https://eec.eaeunion.org/upload/medialibrary/d62/>. –С. 8-9. asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Yer yuzida aholi soni ortib bormoqda bu esa oziq-ovqatga bo'lgan talabning oshishiga olib keladi. Natijada dunyoda aqilli qishloq xo'jaligi, "Qishloq xo'jaligi-4.0" degan konsepsiyalarni paydo bolishi va rivojlanishiga olib keldi. An'anaviy qishloq xo'jaligi usullari bu talabni qondirish uchun yetarli emas. "Qishloq xo'jaligi-4.0" va "Aqlli qishloq xo'jaligi" konsepsiyalari zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali ihsosildorlikni oshirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga imkon beradi.

"Aqlli dala" raqamli texnologiyalarini joriy etish, tuproq, atrof-muhit va o'simliklar to'grisidagi ma'lumotlarni tahlil qilish va tizimli qo'llash orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining barqaror o'sishini ta'minlashdan iborat. "Aqlli dala" yo'nalishidagi texnologik yechimlarni joriy etish quyidagilarni nazarda tutadi:

- o'simlik mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishning raqamli texnologiyalarini ishlab chiqish va monitoringini olib borish;
- ilmiy, ilmiy-texnik faoliyatni rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish;
- dasturiy vositalarni qo'llagan holda tuproq, o'simlik va atrof-muhitning holati bo'yicha o'ta yuqori aniqlikdagi ma'lumotlarni yig'ish;
- o'simlik hosildorligiga ta'sir etuvchi yoki uni cheklovchi omillarni kamaytirishni ta'minlaydigan roqobotlashtirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish.

"Qishloq xo'jaligi-4.0" va "Aqlli qishloq xo'jaligi" konsepsiyalari o'zaro chambarchas bog'liq. Ushbu ishda bu konsepsiyalarning nazariy-uslubiy asoslarini kompleks tahlil qilish va ularning o'zaro bog'liqligini ochib berish muhimdir. O'zbekiston sharoitida tatbiq etish xususiyatlari mazkur konsepsiyalarni O'zbekistonning o'ziga xos sharoitlarida, ya'ni iqlim, tuproq, suv resurslari va boshqa omillarni hisobga olgan holda tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur.

Mutaxassislarning fikricha, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari mavsum davomida 40 dan ortiq turli qarorlar qabul qilishlari zarur bo'ladi. Ushbu yechimlarning aksariyati ishlab chiqarish unumdorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan raqamlashtirishga bog'liq. Hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligida mineral o'g'itlar va o'simliklarni himoya qilish vositalarining yetishmasligi yoki ortiqcha ishlatilishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi, qurg'oqchilik, cho'llanish va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq ko'plab muammolarga duch kelmoqda. Mutaxassislarning fikricha, hosilning 33 foizi ekish, yetishtirish, saqlash va tashish jarayonlarida nobud bo'ladi. Hozirgi vaqtda mavjud yer, suv, moddiy-texnika va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlovchi "aqlli" fermerlik yoki "aqlli qishloq xo'jaligi" texnologiyalari katta ahamiyatga ega [8].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlar asosida quyidagi xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Olimlar va soha mutaxassislarning fikricha, global oziq-ovqat ta'minoti va xavfsizligini ta'minlash masalasini tarmoqlarga raqamli texnologiyalar va innovatsion yechimlar kiritish, boshqacha aytganda, "Qishloq xo'jaligi-4.0" konsepsiyasi doirasida "Aqlli qishloq xo'jaligi"ni joriy etish orqali hal etish mumkin. Raqamli agroteknologiyalarni hududiy sharoitga moslab joriy etish O'zbekistonning iqlim va tuproq sharoitlari turlicha bo'lganligi sababli, "Aqlli qishloq xo'jaligi" texnologiyalarini joriy etishda har bir viloyat, tuman va hatto xo'jalik darajasida lokal agroxaritalar ishlab chiqilishi lozim.

2. Tadqiqotlarga ko'ra, agrooziq-ovqat sektorida mobil texnologiyalar, ma'lumotlarni masofadan uzatish va qayta ishlash xizmatlarining kengayishi hozirning o'zida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarning axborot, ishlab chiqarish resurslari, bozorlar va moliyaviy xizmatlardan foydalanish hamda ta'lim olish imkoniyatlarini oshirmoqda. Raqamli texnologiyalar kichik fermer xo'jaliklarining raqamli agrooziq-ovqat tizimlariga integratsiyalashuvi uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

3. Fermerlar va agrosanoat vakillarining raqamli savodxonligini oshirish amaldagi muammo hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar mavjud bo'lsa-da, fermerlarning ko'pchiligi ulardan foydalana olmaydi. Shu bois, qishloq xo'jaligi texnikumlari va kasb-hunar maktablarida "Aqlli qishloq xo'jaligi asoslari" fanini joriy etish taklif etiladi. Har bir tumanda mobil agroteknologiya o'quv markazlari tashkil etilishi lozim.

4. Suv taqchilligi sharoitida suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish zarur. Mavjud tahlillarga ko'ra, suvning 35–40 foizi yetkazish jarayonida yo'qotilmoqda. Shu bois, kanallarni betonlash bo'yicha davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari orqali infratuzilmani yangilash, "smart irrigation" tizimlarining O'zbekiston sharoitiga mos arzonlashtirilgan variantlarini ishlab chiqish taklif qilinadi.

5. Aqlli texnikalar va raqamli platformalarni subsidiyalash tizimini kengaytirish zarur. Bugungi kunda yuqori unimli texnikalar (lazerli tekislagich, GPS-traktorlar va boshqalar) ko'pchilik fermerlar uchun qimmat. Shu sababli, bu texnikalarni xarid qilishda davlat tomonidan 40–50 foiz subsidiya ajratish yoki kooperativ asosida bir texnikadan bir nechta fermerlar umumiy foydalanadigan tizimni yo'lga qo'yish taklif etiladi.

6. Qo'shilgan qiymat zanjirini raqamli tizim asosida yaratish lozim. Ko'pchilik mahsulotlar faqat xomashyo sifatida sotilmoqda. Har bir viloyatda "Agro Logistika va Raqamli Qayta Ishlash Markazlari" tashkil etish, blokcheyn texnologiyasi asosida "Fermerdan xaridorgacha" raqamli izlash tizimini yaratish zarur. Aqlli



qishloq xo'jaligida xususiy sektor ishtirokini kuchaytirish uchun startaplar uchun grantlar va soliq imtiyozlarini kengaytirish, IT-kompaniyalar bilan birgalikda agrotexnologik ekotizim yaratish taklif etiladi.

7. Tadqiqot doirasida olingan natijalar asosida quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

- agrar ishlab chiqarishni zamonaviy texnikalar, mashinalar va uskunalar bilan ta'minlash darajasini oshirish hamda ekinlarni parvarishlashning intensiv, resurs tejovchi va zamonaviy agrotexnologiyalarini keng joriy etish;
- raqamli texnologiyalarga asoslangan "Qishloq xo'jaligi-4.0" va "Sanoat-4.0" konsepsiyalarini qo'llashning ahamiyati va nazariy-uslubiy asoslarini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni kengaytirish;
- raqamli texnologiyalar asosida "Sanoat-4.0" konsepsiyasini joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini yaratish hamda bu borada fan-texnika yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish;
- avtomatlashtirilgan raqamli texnologiyalarni qo'llashga asoslangan "Aqlli sanoat", "Aqlli fabrikalar" (intelligent manufacturing), "ulkan ma'lumotlar" (Big Data), "bulutli texnologiyalar" (cloud technologies), "agrosanoat majmui boshqaruvida raqamlashtirilgan texnologiyalar", "aniq dehqonchilik", "Aqlli dala", "Aqlli bog'", "Aqlli issiqxona" va "Aqlli chorva fermasi" kabi innovatsion usullarni joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish hamda ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini baholash;
- raqamli texnologiyalar asosida qishloq xo'jaligi ekinlarini optimal joylashtirish, oziq-ovqat va resurslar bozorlari konyunkturasini prognozlashning balanslashgan muvozanatlik va iqtisodiy-matematik modellari tizimini ishlab chiqish;
- rivojlangan mamlakatlardagi "Aqlli qishloq xo'jaligi" hamda raqamli texnologiyalar tizimi qo'llash tajribalarini o'rganish, ularning maqbul jihatlarni tanlab, respublikamiz sharoitlariga moslashtirish;
- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni samarali tashkil etishda zamonaviy intellektual texnologiyalar — haydovchisiz boshqariladigan o'ziyurar texnikalar, kamera va sensorlar bilan jihozlangan navigatsiya dronlari, chorva mollari va ekinlar organizmi, tuproq namligi va mikroiklimni kuzatuvchi datchiklar, chorvachilikni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari, ma'lumotlarni tahlil qilish va boshqarish platformalari kabi aqlli yechimlarni yaratishda neyrotarmoq dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha amaliy yo'riqnomalar ishlab chiqish;
- turli kasalliklar va zararkunandalarga qarshi kurashish sohalarida ilmiy tadqiqotlar olib borish, qishloq xo'jaligida gen injiniringi bo'yicha jahon tajribasidan foydalanib milliy tizimni shakllantirish;
- oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, birlamchi va chuqur qayta ishlash, shuningdek sotish jarayonlarini yagona raqamli platformaga bog'lash orqali "qo'shilgan qiymat zanjiri"ni kuzatib borish va tizimda mahsulotlar nobud bo'lishi bilan bog'liq yo'qotishlarni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yusupov M.S. Raqamli texnologiyalar asosida oziq-ovqat ta'minoti zanjirini rivojlantirish omillari. "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali, 11-12-son (dekabr), 2023 y. -846 b.
2. Трендов Н. М., Варас С., Цзен М., Цифровые технологии на службе сельского хозяйства и сельских регионов (справочный документ). Продовольственная и сельскохозяйственная организация Объединенных Наций (ФАО ООН). Рим, 2019. С. 8-9.
3. ФАО. Положение дел в области продовольствия и сельского хозяйства – 2022. Автоматизация сельского хозяйства как инструмент преобразования агропродовольственных систем. Рим, ФАО. <https://doi.org/10.4060/cb9479ru>.
4. USAID. 2018. Digital farmer profile: Reimagining Smallholder Agriculture. Washington D.C.: USAID.
5. E.Yusupov, D.Djalalova. The significance and ways of development of digitalization of the economy in agriculture // TSUE International Online Conference «Sustainable agricultural development and regional cooperation for inclusive growth in Central Asia» 20 - 22 October 2020. P. 11.
6. M.Yusupov. Oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash zanjirida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish imkoniyatlari. "Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirish istiqbollari" mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. -T.: TDIU, 2023. – 264 b.
7. Abdullaeva I.M., Axmedov B.R. «Aqlli» qishloq xo'jaligi – xorij tajribasi va innovatsion texnologiyalar // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. №5, sentyabr-oktyabr, 2020 yil. 3-5 b.
8. Karimov N., Qulmatova B., Buranova D. Qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari // Academic Research in Educational Sciences. Volume 2. Issue 2. 2021. P. 4.
9. Yusupov M.S. O'zbekistonda "Aqlli qishloq xo'jaligi" va "Qishloq xo'jaligi - 4.0" konsepsiyalarini rivojlantirish. Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi doirasida iqtisodiyot tarmoqlarini innovatsion jadal rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirish" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari tўplami. -T.:Oriental universiteti. 26 aprel, 2023.
10. Stafford-Smith M. et al. Integration: the key to implementing the Sustainable Development Goals //Sustainability science. – 2017. – T. 12. – №. 6. – P. 911-919.
11. Griggs D. et al. Sustainable Development Goals for people and planet //Nature. – 2013. – T. 495. – №. 7441. – P. 305-307.
12. Гомес И., Тивант Л. Учебное пособие по органическому сельскому хозяйству. Продовольственная и сельскохозяйственная организация Объединенных Наций. Будапешт-2017. -С. 120.



13. ФАО, МФСР, ЮНИСЕФ, ВПП и ВОЗ. 2023. Положение дел в области продовольственной безопасности и питания в мире – 2023. Урбанизация, преобразование агропродовольственных систем и здоровый рацион питания в сельско-городском континууме Рим, ФАО. –С. 9. <https://doi.org/10.4060/cc3017ru>
14. Robert K. W., Parris T. M., Leiserowitz A. A. What is sustainable development? Goals, indicators, values, and practice //Environment: science and policy for sustainable development. – 2005. – Т. 47. – №. 3. – P. 8-21.
15. Global Hunger Index (GHI), (2023). Global Hunger Index scores by 2023 GHI rank. www.globalhungerindex.org.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>